

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF LAW RESEARCH
SPECIAL ISSUE-1



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Artur Gambaryan
yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХҲҲАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Egamberdiyev Eminjon
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Жолдасов Айдос Фархадович ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИНИШНИНГ ИЖТИМОЙ ЗАРУРИЯТИ.....	5
2. Саидбоева Махбуба Рахмонназаровна ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ПАРТИИ В ИЗБИРАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В УЗБЕКИСТАНЕ И ТАДЖИКИСТАНЕ.....	17
3. Искендеров Полат Конисбаевич АВТОНОМ (ҲАЙДОВЧИСИЗ) ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ТОМОНИДАН ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ ҚОПЛАШНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	26
4. Мейлиева Наргис Зульфикоровна ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ: ЎЗБЕКИСТОН ВА ПОРТУГАЛИЯ НОТАРИАТИ.....	35
5. Сайдивалиева Хуршида Ходжиақбаровна ОТА-ОНАЛИК ҲУҚУҚЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МУНОСАБАТЛАРИНИ КЕЛИШУВ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	42
6. Vozorov Jasurbek Saydulla o'g'li SHAXSLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING PROKUROR TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI.....	50
7. Акбаралиева Мухайё Караматулло кизи ПОХИЩЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА И ЗАХВАТ ЗАЛОЖНИКА: РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ СОСТАВАМИ.....	57
8. Алиев Асилбек Кадиорович ВОПРОСЫ КВАЛИФИКАЦИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА.....	64
9. Allanova Azizaxon Avazxonovna DAVLAT CHEGARASINI KESIB O'TISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI AMALGA OSHIRISHDA HUDUD MASALASI.....	71
10. Алтиев Раззок Саидович ЖИНОЯТЛАРНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ.....	80
11. Бобокулов Хамид Махмадутович ЕВРОПА ИТТИФОҚИДА ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИККА ҚАРШИ КУРАШ МАСАЛАЛАРИ.....	89
12. Otaboyev Bobur Ibrat o'g'li TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISH JINOYATINING OBYEKTI.....	96



Allanova Azizaxon Avazxonovna,
 Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi
 kurashish kafedrası professori vazifasini bajaruvchisi,
 yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
 E-mail: aziza9106@mail.ru

**DAVLAT CHEGARASINI KESIB O'TISH BILAN BOG'LIQ JINOYATLAR UCHUN
 JINOIY JAVOBGARLIKNI AMALGA OSHIRISHDA HUDUD MASALASI**

For citation: Allanova Azizakhon Avazxonovna. THE ISSUE OF TERRITORY IN THE IMPLEMENTATION OF CRIMINAL LIABILITY FOR CRIMES RELATED TO THE CROSSING OF THE STATE BORDER. Journal of Law Research. 2025, Special issue 1, pp.71-79

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679725>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada davlat chegarasini kesib o'tish bilan bog'liq jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni amalga oshirishda hudud masalasi, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarida mazkur qilmish uchun belgilangan javobgarlik masalalari hamda tahlil qilinayotgan mavzu yuzasidan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda bu sohadagi munosabatlarni yanada chuqurroq tushunish, belgilangan normalarni qiyosiy tahlil qilish, amaldagi qonun hujjatlarida mavjud bo'shliq va kamchiliklarni aniqlangan, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, mamlakat suvereniteti, xavfsizlikni kafolatli ta'minlash, chegaralar xavfsizligini mustahkamlash, chegara buzuvchilari harakatlarini sustlashtirish va qiyinlashtirish, hudud, davlat chegarasi, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish.

Алланова Азизахон Авазхоновна,
 Исполняющий обязанности профессора кафедры уголовного права,
 криминологии и противодействия коррупции Ташкентского
 государственного юридического университета
 доктор философии по юридическим наукам (PhD)
 E-mail: aziza9106@mail.ru

**ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЙ ВОПРОС ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ УГОЛОВНОЙ
 ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ПЕРЕСЕЧЕНИЕМ
 ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАНИЦЫ**

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье рассматривается вопрос территории при осуществлении уголовной ответственности за преступления, связанные с пересечением государственной границы, вопросы ответственности за это деяние, определенные в уголовном законодательстве

некоторых зарубежных стран, а также опыт зарубежных стран в отношении В анализируемой теме более глубоко изучаются отношения в этой сфере, проводится сравнительный анализ действующих норм, выявлены существующие пробелы и недостатки в действующих правовых документах, разработаны конкретные предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: миграция, суверенитет страны, гарантированное обеспечение безопасности, укрепление безопасности границ, замедление и усложнение действий нарушителей границы, территории, государственной границы, иностранных граждан, лиц без гражданства, выселение с территории Республики Узбекистан.

Allanova Azizakhon Avazxonovna,
Acting Professor of the Criminal Law,
Criminology and Anti-corruption Department
of Tashkent State University of Law, PhD in Law
E-mail: aziza9106@mail.ru

THE ISSUE OF TERRITORY IN THE IMPLEMENTATION OF CRIMINAL LIABILITY FOR CRIMES RELATED TO THE CROSSING OF THE STATE BORDER

ANNOTATION

In this scientific article, the issue of territory in the implementation of criminal responsibility for crimes related to crossing the state border, the issues of responsibility for this act defined in the criminal laws of some foreign countries, and the experience of foreign countries in relation to the analyzed topic, the relations in this field are studied more deeply. understanding, comparative analysis of the established norms, existing gaps and shortcomings in the current legal documents were identified, specific proposals and recommendations were developed to eliminate them.

Keywords: migration, sovereignty of the country, guaranteed security, strengthening border security, slowing down and complicating the actions of border violators, territories, state borders, foreign citizens, stateless persons, eviction from the territory of the Republic of Uzbekistan.

Bugungi kunda jahonda mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, migratsiya ham tobora jadallashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa murakkab demografik vaziyatni boshdan kechirayotgan mamlakatlarda mehnat migratsiyasining keng quloch yoyishini mamlakatda favqulodda yuz bergan og'ir vaziyat, nochor holat, ilojsizlikdan ko'ra ko'rilgan tezkor iloj sifatida qabul qilinmoqda. Biroq, bu kabi migratsiyaning noqonuniy shakllari yoki undan g'ayriqonuniy maqsadlarda mo'may daromad topish ilinjida turli ijtimoiy xavfli qilmishlar ham sodir etilmoqdaki, bular davlatlarning kriminogen vaziyatiga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Aksariyat hollarda bunday g'ayriqonuniy qilmishlar davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o'tish, bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda tovar-moddiy boyliklarni olib kirishga urinish, fuqarolik muomalasi cheklangan tovarlarni kontrabanda qilish, giyohvand yoki psixotrop moddalar yoki kuchli ta'sir qiluvchi tibbiy preparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, odam savdosi, mamlakatga kirish-chiqishning belgilangan tartibini buzish, pornografiya, zo'ravonlik, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallarni mamlakat hududiga olib kirish, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishi yoxud mamlakat hududi orqali harakatlanish va boshqa jinoiy qilmishlarni sodir etishda namoyon bo'lmoqda.

Qayd etish kerakki, bugungi keskin geosiyosiy vaziyatlar, notinch qo'shni davlatlar shundoq ham dengizga yo'li bo'lmagan, geografik jihatdan quruqlikdagi mamlakatlar bilan chegaradosh bo'lganligi sababli O'zbekistonning chegara bilan bog'liq masalalarda mamlakat tinchligiga va xavfsizligiga ehtimoliy xavflardan biri O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o'tish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi bilan ham bog'liq.

Material va metodlar

Davlat chegarasini kesib o'tish bilan bog'liq jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni amalga oshirishda hudud masalasining o'ziga xos jihatlarini o'rganish, mazkur holatni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari normalarini tahlil qilishda tizimli tahlil, tarixiy-qiyosiy uslub, abstraktsiya va taqqoslash singari ilmiy bilishning usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari.

Amaldagi jinoyat qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi chegarasidan noqonuniy o'tish bilan bog'liq bir qator jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ular, jumladan JK 223 (davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o'tish), 182 (bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda tovar-moddiy boyliklarni olib kirishga urinish), 246 (fuqarolik muomalasi cheklangan tovarlarni kontrabanda qilish), 251¹ (giyohvand yoki psixotrop moddalar yoki kuchli ta'sir qiluvchi tibbiy preparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish), 135 (odam savdosi), 130, 130¹, 244¹ (pornografiya, zo'ravonlik, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallarni mamlakat hududiga olib kirish), 155² (terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishi yoxud mamlakat hududi orqali harakatlanish) moddalarda nazarda tutilgan jinoiy qilmishlarda ifodalangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida ham mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash, chegaralar xavfsizligini mustahkamlash, chegara buzuvchilari harakatlarini sustlashtirish va qiyinlashtirish jihatdan jihozlanganlik darajasini oshirish[1] vazifalari qo'yilgan.

Sobiq SSSRning tarqalib, o'rnida bir qancha mustaqil davlatlarning paydo bo'lganligi, sobiq ittifoq o'rnida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining paydo bulishi va ular o'rtasida barcha sohadagi aloqalarning tamoman o'zgarganligi, ular o'rtasidagi chegaraviy muamolarni keltirib chiqardiki, bu muamolar bevosita jinoyat qonuning hudud buyicha amal qilishiga ham taaluqlidir.

Har qanday qonun, shu jumladan jinoyat qonuni o'zining amal qilish hududi jihatidan muayyan chegara bilan cheklangan bo'ladi.

Jinoyat qonunlarining hudud bo'yicha amal qilish kuchi haqi-dagi masala muhim siyosiy ahamiyatga egadir. Chunki jinoyat qonuni-ning hudud bo'yicha amal qilishi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi JKning 11-moddasida Jinoyat kodeksining O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, 12-moddasida O'zbekiston hududidan tashqarisida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilish qoidalari belgilangan.

JKning 11-moddasida O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxs ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi, deyiladi. Demak, yer sharining Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan O'zbekiston mustaqil hududga ega ekanligi, uning suveren davlat bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekiston hududi tarixan shakllanib kelgan va xalqaro shartnomalarda belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi O'zbekiston Respublikasining hududi doirasini (quruqlikni, suvni, yer qa'rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat[2]. Orol dengizi Qozog'iston va Qoraqalpog'iston o'rtasida joylashgan bo'lib, Orol dengizining O'zbekistonning chegara chizig'i belgilangan qismi O'zbekiston hududi hisoblanadi. O'zbekistonning Afg'oniston bilan ajratib turuvchi chegara Amudaryoning o'rtasidan o'tgan chegara chizig'i bilan belgilanadi. Ana shu quruqlik va suv chegarasining vertikaliga belgilangan atmosfera havzasi O'zbekistonning havo hududi hisoblanadi. Ana shu chegara chizig'i bilan belgilangan yer osti qismi O'zbekistonning yer osti hududi hisoblanadi. Bu hududda jinoyat sodir qilgan har qanday aqli raso, qonunda belgilangan yoshga yetgan shaxs u qaysi davlatning fuqarosi ekanligidan, fuqaroligi bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, O'zbekiston jinoyat qonuni bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

O'zbekistonning hududidan tashqarida biron-bir davlatning hududiga kirmaydigan ochiq dengiz, havo havzasi yoki quruqlikdagi O'zbekiston yuk va yo'lovchilar tashuvchi kema, samolyot va boshqa ob'ektlar ham O'zbekiston hududi hisoblanib, ularda sodir etilgan jinoyat uchun O'zbekiston Jinoyat kodeksi tadbiq etiladi.

O'zbekistonning harbiy samolyotlari va boshqa harbiy ob'ektlar qaerda turgani yoki harakatlanayotganligidan qat'i nazar, O'zbekiston hududi hisoblanadi va faqat O'zbekiston qonunlari qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi JK 11-moddasining 3-qismida O'zbekiston bayrog'i ostidagi

yoki O‘zbekiston portida ro‘yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida O‘zbekiston hududidan tashqarida bo‘lib, chet el davlati hududi hisoblanmagan joyda jinoyat sodir etilsa, bunday jinoyat uchun ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladi, deyiladi. Ushbu moddaning 4-qismida amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqarolarining javobgarligi to‘g‘risidagi masala O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan holda xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi, deyiladi. Bunday shaxslarning doirasi xalqaro huquq normalarida, shuningdek, davlatlararo shartnomalarda belgilanadi.

Shaxsiy daxlsizlik va jinoyat yurisdiksiyasi immunitetidan foydalanadigan shaxslarga:

Xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari (elchilar, muxtor elchilar, ishonchli vakillar) maslahatchilar, savdo vakolatxona vakillari va ularning o‘rinbosarlari, harbiy, harbiy havo va harbiy-dengiz attashelari, kotib-arxivaruslar hamda O‘zbekiston fuqarosi hisoblanmagan ular bilan birga yashovchi oila a‘zolari kiradi. Bundan tashqari, Konsullar (boshqa bir davlatning o‘z davlati va fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish uchun O‘zbekistonga qo‘yilgan rasmiy vakili), diplomatik vakolatxonalarining xodimlari va boshqa xizmat ko‘rsatish xodimlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning vakillari va mansabdorlari, parlament va hukumat delegatlari immunitetdan foydalanadilar. Eksterritorial huquqdan foydalanadigan shaxslarning doirasi davlatlararo kelishuvga muvofiq kengaytirilishi yoki toraytirilishi mumkin.

Eksterritorial huquq diplomatik vakolatxonalarining xizmat va yashash xonalariga ham joriy qilinadi. Ammo bunday immunitet diplomatik vakolatxona xodimlarining ularga yuklatilgan vazifalardan tashqari foydalanish mumkinligi degani emas.

Shunday qilib, jinoyat uchun javobgarlikning hududiy prinsipiga ko‘ra, har qanday eksterritorial immunitet huquqidan foydalanmaydigan shaxslar, ular O‘zbekiston fuqarosi ekanligi yoki fuqarosi emasligidan, fuqarolikka ega yoki ega emasligidan qat’i nazar, O‘zbekiston hududida jinoyat sodir qilsalar O‘zbekiston jinoyat qonuni bilan javobgar qilinadilar.

Odamlarning harakatlanish doirasi faqat O‘zbekiston davlat chegarasining ichi bilan cheklanmay, boshqa barcha davlat hududida harakatlanib yuradilar. Agar harakat uzoqqa cho‘zilgan yoki davomli jinoyat bo‘lib, jinoyatning bir qismi O‘zbekistonda yoki boshqa davlat hududida boshlanib, O‘zbekiston yoki boshqa davlat hududida oxiriga yetkazilgan bo‘lsa, javobgarlik masalasi qanday hal qilinishi kerak, degan haqli savol tug‘iladi.

Bu masala O‘zbekiston Respublikasi JK ning 11-moddasida aniq ko‘rsatib qo‘yilgan bo‘lib, qilmish: O‘zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki to‘xtatilgan bo‘lsa; O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O‘zbekiston hududida yuz bergan bo‘lsa; O‘zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa O‘zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan bo‘lsa; bir necha qilmishlardan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bo‘lib, uning bir qismi O‘zbekiston hududida yuz bergan bo‘lsa, O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi

O‘zbekiston Respublikasi JK 11-moddasining “b” bandida qilmish “O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa O‘zbekiston hududida yuz bergan bo‘lsa, jinoyat O‘zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat”, deb topilishi haqida bayon qilingan. Ammo ushbu masalani hal qilishda asosan jinoyat tarkibining barcha alomatlarini ifodalovchi harakatlar qaysi davlatning hududida oxirigacha bajarilganligiga e‘tibor berish kerak. Agar jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilib, guruh a‘zolari bir vaqtda turli davlatlar hududida jinoiy faoliyatni amalga oshirayotgan, ularning bajaruvchisi O‘zbekiston hududida harakat qilayotgan bo‘lsa jinoyat O‘zbekiston jinoyat qonuni bilan hal qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi JK 12-moddasida jinoyat qonunining O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilish shartlari belgilangan. Ushbu moddada belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, shuningdek, O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun o‘sha davlat sudining qonuni bilan jazolanmagan bo‘lmasalar, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar. Lekin xuddi shunday qilmish O‘zbekiston Jinoyat kodeksida ham jinoyat deb hisoblangan va jazo nazarda tutilgan bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, ushlab berilishi mumkin emas.

Chet el fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina O‘zbekiston Jinoyat kodeksi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi JK ning 12-moddasi bo‘yicha O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlar uchun O‘zbekiston jinoyat qonuni fuqarolik prinsipiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining chet el davlati hududida sodir etgan jinoyati uchun O‘zbekiston fuqarosiga nisbatan amal qilishi to‘g‘risidagi qoida mazkur shaxsni jinoyat qonunini qo‘llovchi chet el davlatiga ushlab berilishi, ekstraditsiya qilinishi mumkinligi belgilangan.

Ekstraditsiya to‘g‘risidagi olimlarning ilmiy qarashlarini o‘rganganimizda I.I.Lukashuk bu borada “ushlab berish ayblanuvchi yoki sudlanuvchi shaxsni u hududida bo‘lgan davlat tomonidan uni jinoyat sodir etishda ayblayotgan yoki sud qilgan davlatga ushlab berish”[3], deb qayd etganligi aniqlandi. Ushbu ta‘rifda ekstraditsiya asoslari, ayrim ekstraditsiya turlarining (vaqtincha ekstraditsiya, qayta ekstraditsiya) o‘ziga xos xususiyatlari aks ettirilmagan bo‘lganligi bois, ushbu ta‘rifni ekstraditsiyaning mukammal ta‘rifi sifatida qabul qilib bo‘lmaydi.

Boshqa bir olim – R.M.Valeev esa, ushbu masala ustida mushohada yuritib, “ekstraditsiya – bu xalqaro shartnomalar, xalqaro xuquqning umum e‘tirof etilgan normalariga hamda o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi hujjatlarga asoslangan, ayblanuvchi yoki mahkumni u hududida bo‘lgan davlat tomonidan hududida jinoyat sodir etilganligi yoxud aybdor fuqarosi bo‘lganligi yoki jinoyatdan jabr ko‘rganligi bois ushlab berishni talab etayotgan davlatga jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish maqsadida berishi”[4], deya e‘tirof etadi. Mazkur ta‘rifda ekstraditsiya xususiyatlari nisbatan to‘laroq qamrab olingan, biroq garchi ekstraditsiya faqat huquqiy asoslar mavjud bo‘lgandagina emas, balki o‘zarolik tamoyili asosida ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lsada, yuqorida keltirilgan ta‘rifda ayni asos o‘z ifodasini topmagan. Bu va boshqa fikrlarni o‘rgangan holda ekstraditsiyaning quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin deb o‘ylaymiz:

- ekstraditsiya instituti faqat jinoyat huquqi sohasida amalda bo‘lib, faqat jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs ushlab berilishi so‘raladi (ekstraditsiya shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun amalga oshiriladi);
- shaxs ushlab berishni so‘rayotgan davlat hududida bo‘lmasligi;
- ekstraditsiya mohiyatan shaxsni boshqa davlatga o‘tkazishni namoyon etadi;
- ekstraditsiya sub‘ekti ushlab berilishi so‘ralayotgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Ekstraditsiya institutining huquqiy asoslari xam uning ko‘p tizimlilikidan dalolat beradi. Ekstraditsiyaning normativ huquqiy asoslarini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- ichki qonunchilik manbalari;
- xalqaro huquq manbalari.

Shuni qayd etish joizki, xalqaro huquq bilan milliy xuquq normalari bir-biriga doimiy tarzda ta‘sir o‘tkazib turadi. Professor G.Matkarimova bu borada “milliy huquq va xalqaro huquq o‘zaro kelishuv asosida, qarama-qarshilik va ziddiyatlarsiz munosabatda bo‘lishi kerak”[5], deb asosli fikr bildiradi.

Xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikka singdirilishi xalqaro huquq va ichki qonunchilik tizimida o‘zaro uyg‘unlikni ta‘minlash vazifasidan kelib chiqadi. Bugungi kunda katta tizimga ega bo‘lgan xalqaro munosabatlarning barcha jabhalarini aks ettiruvchi xalqaro huquq normalarini ichki qonunchilikda qo‘llash, eng avvalo, uni takomillashtirishga xizmat kiladi. SHu ma‘noda, xalqaro huquq va ichki qonunchilik o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat xalqaro huquqiy, balki milliy qonunchilik nuqtai nazardan ham dolzarb hisoblanadi.

Ekstraditsiya chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, mohiyatan fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga asoslanadi. Ekstraditsiya orqali davlat nafaqat o‘z fuqarolarining huquqlarini tiklaydi, balki har qanday shaxsning, jumladan

fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hamda chet el fuqarolarining ham manfaatlarini muhofaza etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasida ekstraditsiyaning muhim prinsiplaridan biri bo'lgan o'z fuqarolarini ushlab bermaslik prinsipi ifodalangan bo'lib, ushbu normaga ko'ra O'zbekiston fuqarosi chet el davlati hududida sodir etilgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas. Shu mazmundagi qoida "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida" gi Qonunda ham o'z ifodasini topgan[7]. Shu bilan birga o'z fuqarolarini ushlab bermaslik mezoni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual imperativ asos sifatida belgilangan bo'lib (603-modda), xalqaro shartnomalar bilan boshqacha tartib belgilanishi mumkinligini istisno etadi.

1982 yildagi "Ekstraditsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilinguniga qadar AQSh qonunchiligida ekstraditsiyani amalga oshirish uchun asos bo'luvchi shartnoma qanday bo'lishi haqida aniq yo'nalish mavjud bo'lmagan. Ushbu qonunga ko'ra AQSh o'z hududidagi shaxslarni faqatgina AQSh va so'rayotgan davlat o'rtasida ekstraditsiyaga oid maxsus shartnoma bo'lgan taqdirdagina ushlab berishi mumkin[8].

Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishini belgilovchi qoidaning mustahkamlanishiga ko'ra ham O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonuni va ayrim MDH davlatlari jinoyat qonunlaridagi qoida o'rtasida tafovut mavjudligi aniqlandi.

Jumladan, JKning 11-moddasida O'zbekiston bayrog'i ostidagi yoki O'zbekiston portida ro'yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amal qilishi belgilangan bo'lsada, biroq, O'zbekiston Respublikasining harbiy havo, dengiz yoki daryo kemasida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amal qilishi belgilanmagan.

Aynan mazkur qoida Rossiya Federatsiyasi (RF) (JK 11-m.), Qozog'iston (7-m.), Belarus (5-m.), Ozarbayjon (11-m.) Respublikalari jinoyat qonunlarida ham belgilangan.

Qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq umumiy harbiy majburiyat O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi[9]. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida chet el fuqarolari harbiy xizmat o'tashiga yo'l qo'yilmaydi.

Shunga ko'ra jinoyat sodir etilgan hududidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining harbiy havo, dengiz yoki daryo kemasida sodir etilgan jinoyat harbiy – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan sodir etilishini inobatga olib JK 11-moddasiga ushbu qo'shimchaning kiritilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishi belgilab qo'yilgan[10]. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va erkinliklariga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan harbiy yoki boshqa jinoyatlarni sodir etgan chet el fuqarolari, shuningdek O'zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi JK bo'yicha javobgarlikka tortilishi yuqorida keltirilgan konstitutsiyaviy normaning mohiyatiga mos keladi hamda bunday qilmishlar uchun ham javobgarlikning muqarrarligi ta'minlanadi. Aynan shunday qoida RF, Qozog'iston, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Ukraina Respublikalari jinoyat qonunlarida o'z aksini topgan holda O'zbekiston Respublikasi JKda bu masala ochiq qolgan.

Jumladan, mazkur qoida RF JKning 12-moddasi, Qozog'iston JKning 8-moddasi, Belarus JKning 6-moddasi, Moldova JKning 11-moddasi, Ozarbayjon JKning 12-moddasi, Ukraina JKning 8-moddasida o'z aksini topgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi JKning 12-moddasini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 25 apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining MJtKning 23-moddasi chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish tarzidagi ma'muriy jazo kiritilgan edi[11].

Bizningcha, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi, jinoyat natijasida O‘zbekiston Respublikasi, jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlariga yetkazilgan zararining ko‘lami va miqdori jihatidan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘shimcha jazo tariqasida chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish tarzidagi jinoiy jazo penalizatsiya qilinishi maqsadga muvofiq.

Mazkur turdagi ma‘muriy jazoning MJtKga kiritilishi uning jinoiy jazo tariqasida kiritilishiga to‘sqinlik qilmaydi. Ushbu fikrni ma‘muriy huquqbuzarlik ijtimoiy xavfliligiga ko‘ra jinoyatdan og‘ir ekanligi bilan ham izohlash mumkin.

Shuningdek, jinoyat-huquqiy siyosatda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash imkoniyatini oshirish borasida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolardan ko‘zlangan maqsadga erishish, jinoyat sodir etgan shaxsni axloqan tuzatish maqsadida jarima jazosini nafaqat asosiy, balki qo‘shimcha jazo tariqasida ham qo‘llanilishi jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash, shaxsning o‘z qilmishi ijtimoiy xavfliligini yanada yaqqol anglash hamda jazodan ko‘zlangan maqsadga erishishga xizmat qiladi.

Qayd etish lozimki, mazkur qoida RF (45-m.), Belarus (48-m.), Moldova (62-m.), Ozarbayjon (43-m.), Ukraina (52-m.), Gruziya (41-m.) va Armaniston (50-m.) Respublikalari jinoyat qonunchiligida ham mustahkamlangan bo‘lib, jarima jazosi nafaqat asosiy, balki qo‘shimcha jazo tariqasida ham qo‘llanilishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko‘ra JK 43-moddasida chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish tariqasidagi jinoiy jazoni belgilash taklif etiladi.

Shuningdek, yuqorida taklif etilgan jinoiy jazoni penalizatsiya qilish to‘g‘risidagi taklifdan kelib chiqib, JKni chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish tariqasidagi jazo turini belgilovchi 45²-modda (Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish) bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Yuqoridagilarga asosan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishi deganda Jinoyat kodeksi Umumiy va Maxsus qismi normalarining O‘zbekiston hududida hamda O‘zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilishi, ya‘ni O‘zbekiston hududida hamda O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etilgan qilmishning jinoiyliigi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi bilan belgilanishini anglatadi;

ikkinchidan, O‘zbekiston hududida huquqiy immunitetdan quyidagi chet el fuqarolari foydalanishi mumkin: xorijiy davlat diplomatik xodimlari; xorijiy davlat vakolatxonalarini xodimlari; xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xodimlari; xorijiy davlatlarning boshqa vakillari;

uchinchidan, ekstraditsiya instituti chet eldagi jinoyatchi shaxslarni ushlab keltirishnigina emas, balki O‘zbekiston Respublikasi hududidan boshqa davlatlarga ushlab berish va bu orqali shaxs va fuqarolarning paymol etilgan huquqlarini va ijtimoiy adolatni tiklash hamda ayb uchun javobgarlik prinsipiga amal qilinishini ta‘minlaydi. Shunga asosan, milliy jinoyat qonunchiligida ekstraditsiyaning muhim prinsiplaridan biri bo‘lgan o‘z fuqarolarini ushlab bermaslik prinsipi ifodalangan;

to‘rtinchidan, ekstraditsiyaning quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin: ekstraditsiya instituti faqat jinoyat huquqi sohasida amalda bo‘lib, faqat jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs ushlab berilishi so‘raladi (ekstraditsiya shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun amalga oshiriladi); shaxs ushlab berishni so‘rayotgan davlat hududida bo‘lmasligi; ekstraditsiya mohiyatan shaxsni boshqa davlatga o‘tkazishni namoyon etadi; ekstraditsiya sub‘ekti ushlab berilishi so‘ralayotgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi JKning 12-moddasini quyidagi mazmundagi qism bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq:

“Chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi manfaatlariga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va erkinliklariga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo‘lgan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan harbiy yoki boshqa jinoyatlarni O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan hollarda chet davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo‘lmalar, ushbu Kodeks bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.”

oltinchidan, JK 43-moddasini quyidagi tahrirda o‘zgartirish taklif etiladi:

“43-modda. Jazo tizimi

b²) chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish;

...

Jarima, chet el fuqarolarini va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish va muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo‘shimcha jazo tariqasida ham qo‘llanilishi mumkin”.

yettinchidan, yuqorida taklif etilgan jinoiy jazoni penalizatsiya qilish to‘g‘risidagi taklifdan kelib chiqib, JKni chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish tariqasidagi jazo turini belgilovchi 45²-modda bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq:

“45²-modda. Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqarib yuborish ushbu shaxsning O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi keyinchalik uch yildan besh yilgacha muddatga cheklangan holda, nazorat ostida chiqarib yuborishdan iborat”.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 11.09.2023 No. PF-158 "On the Strategy of Uzbekistan - 2030".)
2. O‘zbekiston Respublikasining 13.09.2023 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-868-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6605257> (Law of the Republic of Uzbekistan dated 13.09.2023 "On the State Border of the Republic of Uzbekistan" No. ORQ-868.)
3. Лукашук И.И. Международное право. Особенная часть. Учебник. 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Волтерс Клувер, 2005. - 459 с. (Lukashuk I.I. International law. A special part. Textbook. 3rd ed., revised. and additional - M.: Wolters Kluwer, 2005. - 459 p.)
4. Умарханова Д.Ш. Жиноят содир қилган шахсларнинг экстрадицияси бўйича халқаро-ҳуқуқий ҳамкорлик: Юрид. фан. номз. ... дисс. - Тошкент, 2010. - Б. 23. (Umarkhanova D.Sh. International legal cooperation on extradition of criminals: Law. science. name ... diss. - Tashkent, 2010. - B. 23.)
5. Маткаримова Г. Халқаро ҳуқуқ ва Ўзбекистон ҳуқуқий тизими. - Тошкент: ТДЮИ, 2002. - Б. 40-41. (Matkarimova G. International law and the legal system of Uzbekistan. - Tashkent: TDYuI, 2002. - B. 40-41.)
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами//51-сон. Т.:2004. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Citizenship of the Republic of Uzbekistan" // Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan // No. 51. T.: 2004.)
7. U.S. Extradition Law. - Washington, 2001. - P. 5. – www.justice.gov
8. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2008 й., 37-38-сон, 362-модда, 50-сон, 491-модда; 2016 й., 39-сон, 457-модда. (Collection

- of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2004, No. 51, Article 514; 2008, No. 37-38, Article 362, No. 50, Article 491; 2016, No. 39, Article 457.)
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. [https:// www.lex.uz/docs/6445145#6445781](https://www.lex.uz/docs/6445145#6445781) (Constitution of the Republic of Uzbekistan.)
 10. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 25 апрелдаги ЎРҚ-405-сонли Қонуни. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.11.2024 й., 03/24/987/0873-сон. <https://lex.uz/docs/2937151> (Law of the Republic of Uzbekistan dated April 25, 2016 No. ORQ-405. National database of legislative information, 01.11.2024, No. 03/24/987/0873.)
 11. Дипломатия муносабатлари тўғрисидаги Вена Конвенцияси (Вена, 1961 йил 18 апрел. 1964 йил 24 апрелдан кучга кирган. Ўзбекистон Республикасининг қўшилиши Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1994 йил 6 майдаги 1078-ХII-сонли қарорига мувофиқ) (Vienna Convention on Diplomatic Relations (Vienna, April 18, 1961. Entered into force on April 24, 1964. Accession of the Republic of Uzbekistan in accordance with the decision of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan No. 1078-XII dated May 6, 1994)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF LAW RESEARCH
SPECIAL ISSUE-1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000